ORIENTAL UNIVERSITETI

"ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, VAZIFALAR VA YECHIMLAR"

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

(Toshkent, 2025 yil, 14-oktabr)

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

TOSHKENT – 2025

“Zamonaviy ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, vazifalar va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. Oriental universiteti. – 550 b.

Mas’ul muharrir:
Mamataxunov Nozimjon Azizovich – Oriental universiteti rektori.

Mas’ul muharrir o‘rinbosari:
Nosirova Malika Anvarovna – Oriental universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori.

Maqolalarni to‘plovchi:
Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich – Oriental universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

Tahrir hay’ati:
Rahmatova Gavhar Omonovna – “Tillar-1” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Aminov Xayotjon Xalimjonovich – “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
Bobojonov Islombek Usmonaliyevich – “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Po‘latov Laziz Azamat o‘g‘li – “Jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Isaqulov To‘lqin Mahmud o‘g‘li – “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Nasirov Dilshod Xusnitdinovich – “Tillar-2” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o‘g‘li – “Tillar-1” kafedrasi dotsenti v.b..

Mazkur to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil “____” oktabridagi “___”-son bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

© Oriental universiteti, 2025

M

O‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA SABR VA MEHNAT QADRIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

https://zenodo.org/uploads/17732169

Azizabonu Karimjonova Shuhratjon qizi,
Oriental universiteti talabasi

Ilmiy rahbar:
Xudayberdiyeva Svetlana Vladimirovna,
Oriental universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o‘zbek xalqlarining og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutadigan sabr va mehnat mavzusiga oid maqollarni birgalikda chuqur tahlil qilamiz. Maqollar – bu har ikki xalqning dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari hamda ijtimoiy hayot tajribasini aks ettiruvchi bebaho manba sifatida ko‘riladi. Tadqiqot davomida sabr-toqat, mehnatsevarlik, matonat va bardoahlilik tushunchalari o‘zbek va koreys maqollarida qanday talqin etilishi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari, tarbiyaviy ahamiyati yoritib beriladi. Ayniqsa, xalq maqollarining yosh avlodni mehnat qilishga, sabrli bo‘lishga, hayotdagi qiyinchiliklarnj yengishga undashdagi o‘rni alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarning zamonaviy hayotda qo‘llanishi va ularning qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazishdagi vazifasi ham yoritiladi. Ushbu maqola tilshunoslik, folklorshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sabr, mehnat, maqol, koreys tili, o‘zbek tili, og‘zaki ijod, tarbiya, qadriyat, qiyosiy tahlil, xalq donishmandligi.

Abstract: This article privides an in-depth analysis of proverbs related to patience and hard work in the oral traditions of both korean and uzbek peoples. Proverbs are viewed as a valuable source reflecting the worldview, moral values, and social experiences of nations. The study examines how concepts such as patience, diligence, perseverance and endurance are interpreted in korean and uzbek proverbs, highlighting their similarities and differences. Special attention is given ti the educational significance of these proverbs, particularly their role in encouraging younger generations to be hard working, petient and resilient in the face of life’s challenges. Futhermore, the article emphasizes the continued relevance of proverbs in modern society and their function in transmitting cultural values across generations. The findings od this research may serve as a useful resource forscholars in linguistics, folklore and cultural studies.

Keywords: patience, hard work, proverb, korean language, uzbek language, oral tradition, education, values, comparative analysis, folk wisdom.

“Har bir xalq maqollar orqali sabr, mehnat, halollik kabi qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazadi.” Har bir xalqning og‘zaki ijodi uning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi bebaho meros hisoblanadi. Xususan, maqollar xalq donishmandligining eng torqin namoyonidir. Ular asrlar davomida jamiyat hayotini, ijtimoiy munosabatlarni, insoniy fazilatlarni va turmush tarzini ifodalab kelmoqda. Koreys va o‘zbek xalqlarining maqollari mazmun jihatidan boy bo‘lib, ularning ko‘plab o‘xshashliklari va ayrim farqli jihatkari mavjud. Ayniqsa, sabr va mehnat mavzusidagi maqollar ikki xalqning qadimdan shakllangan hayotiy tajribasini, qadriyatlarini va turmuah falsafasini yaqqol ifodalaydi. Maqol – xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy janrlaridan biridir. [1] U qisqa, lo‘nda, obrazli shaklda xalqning hayotiy tajribasi, donoligi va qadriyatlarini ifodalaydi. Maqollar ko‘pincha ikki qismdan iborat bo‘lib, o‘zaro qarama-qarshi fikr yoki xukosa orqali ma’no beradi. Ular tarbiya, maslahat, nasihat, taqqoslash maqsadida ishlatiladi. Maqollarning xususiyatlari: Qisqaligi – kam so‘z bilan katta ma’no beriladi. Umumiyligi – shaxsga emas, balki butun hayotiy holatlarga tegishli bo‘ladi. Tarbiya vazifasi – yosh avlodni sabr, mehnat, halollikka o‘rgatadi. Maqollarning hayotimizda ahamiyati katta. Til boyligini oshiradi. Milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiradi. Tarbiyaviy kuchga ega – ota- onalar, ustozlar nasihat sifatida qo‘llaydi. Nutq bezagi – yozuvchi, shoir va notiqlar fikrni kuchaytirishda ishlatadi. Koreys xalq maqollari – og‘zaki ijodining qadimiy janri bo‘lib, ular jamiyatning turmush tarzi, qadriyatlari va mentalitetni ifodalaydi. Koreys tilida maqol “ 속담” (sokdam) deb ataladi[2]. U ma’lum vaziyatlarda, to‘g‘ri joyda ishlatilganda ta’sirli bo‘ladi. Kundalik hayotda suhbat paytida maslahat yoki ogohlantirish uchun ishlatiladi. Ota-ona va kattalar nasihatida – yoshlarga odob, sabr va mehnat haqida saboq berishda ishlatiladi. Adabiy va she’riy bezak sifatida - she’riyat, hikoya, darslik va maqolalarda fikrni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Qiyos va taqqoslashda – ikki vaziyatni solishtirish, xulosa chiqarishda ham ishlatiladi. Rasmiy va norasmiy nutqda – rasmiy nutqda odatda ma’ruzalar, ilmiy maqolalarda xalq donoligini asos sifatida ishlatiladi. Norasmiy nutqda esa hazil, maslahat yoki nasihat sifatida qo‘llaniladi[3].

Maqollar, avvalo, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, insonlarni sabr, mehnatsevarlik, halollik, odoblilik va hayotiy donolikka chorlaydi. Shu bilan birga, ular nutqiy-estetik vazifani ham bajaradi, ya’ni suhbat yoki matnni mazmunan boyitib, ta’sirchanligini kuchaytiradi. Lingvistik jihatdan maqollar maqollar qisqa, lo‘nda bo‘lib, ko‘pincha qofiya, parallelizm va obrazli ifodalardan foydalaniladi. Masalan, o‘zbek xalq maqollarida dehqonchilik, mehnat, oilaviy hayot va ijtimoiy munosabatlar ko‘proq aks etsa, koreys maqollarida tabiat manzaralari, hayvonot olami va jamiyatdagi odob-axloq qoidalari keng o‘rin egallaydi.

O‘zbek va koreys maqollarining bir nechtasini birgalikda qiyosiy tahlil qilamiz:

[1] ICH of Uzbekistan. Proverbs and Sayings. (n.d.) 01.04

[2] Wikipedia. Korean Proverbs (속담) . (2023). 203-209 page.

[3] Rank, J. (2003). Native Proverbs as Condensed Culture and Keys to Mentality. Global Business Languages, Vol. 6, Article 12. Purde University.

I. **“고생 끝에 낙이 온다”.**[1] O‘zbek tilida esa “Mehnatning - tagi rohat” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 고생 – mashaqqat, qiyinchilik, 끝에 – oxirida, 낙 - huzur, rohat, mehnat – qiyinchilik, kuch sarflash, tagi – natijasi, oxiri, rohat – tinchlik, huzur. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqolda ham hayotdagi mashaqqatli mehnat yoki qiyinchiliklardan keyin albatta yaxshi natija bo‘lishi ta’kidlangan. 2) Har ikkisi ham odamni sabrli va bardoshli bo‘lishga undaydi. 3) O‘zbek va koreys madaniyatida ham “qiyinchilik – sinov, sabr esa baxtga eltuvchi yo‘l” degan qarash mavjud. Koreyscha maqokda asosan “qiyinchilikning tugashi” ta’kidlanadi. Ya’ni azoblar tugashi bilan rohat o‘zi keladi. O‘zbekcha maqol esa “ mehnat qilish zarurligini” ochiq ko‘rsatadi. Ya’ni, mehnat qilgan odam albatta rohat topadi.

II. **“티끌 모아 태산”**[2]**.** O‘zbek tilida esa “Toma toma ko‘l bo‘lur” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 트끌 – chang, juda kichik narsalar, 모아 – yig‘sang, 태산 – katta tog‘ (Xitoydagi mashhur Taesan tog‘i), toma – suv tomchisi, ko‘l – katta suv havza.

Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqolda ham, kichik narsalar yig‘ilib, katta natija beradi degan hayotiy haqiqat ifodalangan. 2) Har ikkisi ham insonni tejamkorlikka, sabr va izchillikka undaydi. 3) Koreya va o‘zbek madaniyatida ham “kichik qadamlar katta muvaffaqiyatga eltadi” degan tushuncha muhim o‘rin tutadi. Koreyscha maqolda asosiy obraz chang va tog‘. Bu tasvir orqali “juda arzimas narsalarning yig‘ilishi ham katta natijaga olib keladi” degan ma’no ta’kidlanadi. O‘zbekcha maqolda esa, tomchi va ko‘l obraziga asoslangan. Suv o‘zbek xalq hayotida dehqonchilik, sug‘orish, hosil kabi juda muhim bo‘lganj uchun u orqali, “doimiy sabr” g‘oyasi ifodalanadi.

III. **“콩 심은 데 콩 나도 팥 심은 데 팥 난다”.** O‘zbek tilida esa “Nima eksang, shuni o‘rasan” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 콩 – loviya, 심 – eksang, 팥 – noxat, 나다 – chiqadi, o‘rmoq – hosilni yig‘ib olmoq. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqolda ham, har bir inson qilgan ishi, qilgan amali yoki tanlovining natijasini ko‘radi. 2)Yaxshi ish qilsa - yaxshi natija, yomon ish qilsa – yomon natija bo‘ladi. Bu maqolda sabab – natija bog‘liqligi va adolatli hayot qonuni ifodalanadi. 3) Koreyscha maqolda asosiy obraz loviya va noxat. Bu orqali “inson nima qilsang natijasi ham shuning mevasi bo‘ladi” degan ma’no ta’kidlanadi. O‘zbekcha maqolda esa, “ kelajaging hozirgi ishlaringga bog‘liq ”degan ma’nolarda qo‘llaniladi.

IV. **“구슬이 서 말이라도 꿰어야 보배다”.**[3] O‘zbek tilida esa, “Mehnat qilmasang, natijasi bo‘lmaydi” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 구슬 – marvarid, 서 말이 – juda ko‘p, 꿰 - ipga tizmoq, 보배 -xazina . Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqolda ham, mehnatning ahamiyatini ta’kidlaydi.

---

[1] Gogohanguk. Korean Proverbs (속담). (2021). Gene Aw

[2]한국어 속담 한자성어 (2015) 17 bet 011

[3]한국어 속담 한자성어 (2015) 74 bet 094

2) Insonsa bilim va qobiliyat bo‘lsa ham , uni mehnat orqali amalda qo‘llamasa, undan foyda yo‘q. 3) Koreyscha maqolda asosiy obraz marvarid. Ya’ni “marvarid ko‘p bo‘lsa ham, uni ipga tizsanggina xazina bo‘ladi”. O‘zbekcha maqolda esa, “mehnatsiz hech qanday yutuq bo‘lmasligini” ta’kidlaydi.

V. **“천 리 길도 한 걸음부터”**. O‘zbek tilida esa, “Katta ishlar kichik qadamlardan boshlanadi” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 천 – ming, 길 – yo‘l, 한 – bir, 걸음부터 – qadamdan. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqol ham, boshlash muhim ekanligini anglatadi. 2) Har ikkisi ham maqsad sari sabr bilan davom etish kerakligi ilgari surilgan. 3) Koreyscha maqolda “ming chaqirim yo‘l bosish uchun ham bir qadamni tashlash kerak” deb ta’kidlanadi. O‘zbekcha maqolda esa, “katta ishlar ham kichik ishlardan boshlanadi” deb ta’kidlaydi.

VI. **“참으면 복이 온다”**[1]. O‘zbek tilida esa, “Sabrning tagi sariq oltin” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 참 – sabr, 복 – baxt, 오다 – kelmoq, tagi – oxiri. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) Ikkala maqol ham, sabrning natijasi yaxshi bo‘lishini ta’kidlaydi. 2) Har ikkisi ham sabrning natijasini xudiki oltinga qiyoslashgan. 3) Koreyscha maqolda, “ sabrning oxirida baxt keladi” deb aytiladi. O‘zbekcha maqolda esa “ sabrning oxirini oltindek qadrlanadigan natija beradi” deb ta’kidlanadi.

VII. **“돌다리도 두들겨 보고 건넌다”**[2]. O‘zbek tilida esa, “Shoshgan qochadi, sabr qilgan yetadi” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 돌 – tosh, 다리 – ko‘prik, 두들겨 – taqillatib ko‘r, 건너다 – kesib o‘tmoq. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) İkkala maqolda ham, shoshqaloqlikning yomon oqibatini ko‘rsatadi. 2) Har ikkisida ham “ishni shoshmasdan qilish kerakligini, sabr va ehtiyotkorlik bilan ham yaxshi sifatga ham yaxshi natijaga erishiladi” degan ma’no ilgari surilgan. Ya’ni har ishni sinab, o‘ylab korib bajarsang, manzilingga yetib olasan.

VIII **“세 번 꺾어야 대나무다”**[3]. O‘zbek tilida esa, “Sinovlardan o‘tgan odamgina pishadi” maqoliga to‘g‘ri keladi. Lug‘aviy ma’nosi: 세 – 3, 번 – marta, 꺾다 – bukmoq, 대나무 – bambuk, pishmoq – chidamli. Ma’no va g‘oya jihatdan o‘xshashliklar: 1) İkkala maqolda ham, sinov va qiyinchilikning ahamiyatini ko‘rsatgan. 2) Har ikkisida ham sinovlarsiz mustahkam yoki yetuk bo‘la olmasligi haqida aytilgan. Ya’ni “insonni kamolotga olib boradigan narsa – sinov va sabr bilan yengib o‘tilgan qiyinchiliklar” deb ta’kidlanadi

XULOSA. “고생 끝에 낙이 온다”– ko‘proq sabrga urg‘u beradi. “Mehnatning tagi rohat – ko‘proq mehnat va harakatga urg‘u beradi. Ammo ikkisi ham bir ma’noda: “ Qiyinchilikdan kwyin rohat, mehnatdan keyin baxt bo‘ladi” degan hayotiy hikmatni ifodalaydi.

---

[1]한국어 속담 한자성어 (2015) 17 bet 011

[2]한국어 속담 한자성어 (2015) 18 bet 014

[3]한국어 속담 한자성어 (2015) 33 bet 035

"티끌 모아 태산" - İkkala maqol ham.bir xil g'oyani ifodalaydi: "Kichik narsalarni e'tiborsiz qoldirma, ularni to'plasang, katta natija bo'ladi. Farqi shundaki, koreyscha ibira tog' va chang obraziga, o'zbekcha ibora esa suv va tomchi obraziga asoslanadi.

"콩 심은 데 콩 나도 팥 심은 데 팥 난다"- maqoli bizga shuni eslatadiki, hayotga qanday ish qilsak, qanday niyat va mehnat qilsak, natijasi ham shunga yarasha bo'ladi. Yaxshi niyat, halol mehnat va yaxshi xulq – yaxshi natija va baraka keltiradi. Ya'ni "mehnat qilgan inson o'z hosilini ko'radi, niyat qilgan narsasiga yetadi" degan hayotiy haqiqatni xulosa qilsak bo'ladi.

"구슬이 서 말이라도 꿰어야 보배다" – bu maqolda shunday hayotiy haqiqat bor: odamda bilim qobiliyat yoki imkoniyatlar ko'p bo'lsa ham, agar ular mehnat va amaliyot bilan birlashtirilmasa, foyda bermaydi. Ya'ni mehnat qilmasang, natijasi bo'lmaydi.

"천 리 길도 한 걸음부터" – bu maqolda shunday hayotiy haqiqat bor: " har qanday yutuqning kaliti – kichik qadamlardan boshlanadi" deb ta'kidlaydi. "참으면 복이 온다" – bu maqolda shunday hayotiy haqiqat bor: "sabr qilgan odam oxirida yaxshi natijaga erishadi, baxt va omadga muyassar bo'ladi" degan. Ya'ni sabrning natijasi albatta omadli tugaydi.

"돌다리도 두들겨 보고 건넌다" – bu maqolda shunday hayotiy haqiqat bor: har qanday ishni shoshmasdan, tekshirib, ehtiyotkorlik bilan qilish kerak. Hatto mustahkam ko'rinadigan narsa ham, sinab ko'rilmasa, xato bo'lishi mumkin. "세 번 꺾어야 대나무다" – bu maqolda shunday hayotiy haqiqat bor: inson hayotda ko'plab qiyinchilik va sinovlardan o'tishi kerak. Faqat sinovlardan o'tgan insongina chinakam kuchli va pishiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kim, Seon Jeong; Kim, Sung-soo; Lee, So-hyeon; Jung, Jae-young. *Living Korean Language with Proverbs*. Language Plus.

2. Kim, Yong-chol (compiler). *Proverbs, East and West: An Anthology of Chinese, Korean, and Japanese Sayings with Western Equivalents*. Hollym, 1998.

3. Seon Jeong Kim. *Living Korean Language with Chinese Proverbs*. Language Plus.

4. Min Jin-young, Park So-young, Lee Jee-yoon. *1000 Key Korean Idioms and Proverbs*. 다락원 Darakwon, 2022.

5. Jeyseon Lee; Youseon Lee. *Essential Korean Proverbs: 200 Proverbs to Upgrade Your Korean (속담을 알면 한국어가 쉬워진다)*. Kong & Park, 2021.

6. Won Eun Young; Lee Kyung-a. *Learn Korean thru Idioms and Proverbs*. CHAM Korean.

7. 한국어 속담 한자성어.2015.

“Zamonaviy ilm-fan va ta’limning dolzarb masalalari: muammolar, vazifalar va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2025. – 550 b.

Mas’ul muharrir:
Mamataxunov Nozimjon Azizovich – Oriental universiteti rektori.

Mas’ul muharrir o‘rinbosari:
Nosirova Malika Anvarovna – Oriental universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori.

Maqolalarni to‘plovchi:
Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich – Oriental universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogic kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

Tahrir hay’ati:
Rahmatova Gavhar Omonovna – “Tillar-1” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Aminov Xayotjon Xalimjonovich – “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
Po‘latov Laziz Azamat o‘g‘li – “Jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Isaqulov To‘lqin Mahmud o‘g‘li – “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Nasirov Dilshod Xusnitdinovich – “Tillar-2” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o‘g‘li – “Tillar-1” kafedrasi v.b. dotsenti.

Mazkur to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil “____” oktabridagi “___”-son bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

© Oriental universiteti, 2025.